

ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA ASOSLARI FANINI O‘QITISHNING RAQOBATBARDOSH HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDAGI O‘RNI

PAZILOVA SHOXIDA ABDULBASITOVNA

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti, PhD

E-mail: shohida.pazilova.70@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada elektrotexnika va elektronika asoslari fanidan mashg‘ulotlarni tashkillashtirishning bugungi holati tahlil qilib chiqilgan. Shuningdek, tayyorlanayotgan kadrlarning sifatini rivojlantirish ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va shu orqali ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini maqsadga muvofiqligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: elektrotexnika, innovatsion texnologiyalar, maqsad, kasbiy tayyorgarlik, o‘quv jarayoni, metod, samaradorlik, integratsiya, pedagogik texnologiya.

KIRISH

Ta‘lim tizimining barcha yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan ozgarishlar, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, unga ta‘lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda ta‘lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri jahon andozasiga mos yetuk va raqobatbardosh, fikri yuksak va tasavvuri boy bo‘lgan yosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu sababli ta‘lim jarayoni ham mazmun, ham uslub jihatdan o‘zgacha ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro miqyosda oliy harbiy ta‘lim mazmunini, ayniqsa elektrotexnika va elektronika asoslari fanining mazmunini takomillashtirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida o‘qitish orqali, harbiy texnika va texnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, elektrotexnika va elektronika fanining erishgan yutuqlaridan harbiy sohada qo‘llanishi kabi fanning amaliy jihatlari bilan qurollantirish borasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Zamonaviy jangning asosiy xususiyatlari unda elektron hisoblash texnikasidan foydalanishdan, jangni boshqarishda murakkab radiotexnik



vositalarning qo'llanilishidan, asosiy qurollarni boshqarishni avtomatlashtirishdan iborat. Zamonaviy harbiy texnika tobora ko'proq elektron asboblardan va apparatlar bilan jihozlanmoqda. Bularning barchasi esa elektronikaning rivojlanishi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda ham harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim va ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish orqali kelgusi taraqqiyoti va uning buyuk davlatga aylantirishda bo'lajak vatan himoyachilarini intellektual salohiyatini yuksaltirish, ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirish, shuningdek, ularni zamonaviy ilm - fan, madaniyat, texnika, texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tushuntirib borish muhim ahamiyat kasb etayotganligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi amal qilishi, kursantlarda o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv fani bo'yicha bo'lgan bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, kursantlarning jadal tarzda taraqqiy etishini ta'minlaydi.

Elektrotexnika va elektronika asoslari fannini o'qitishda tashkil etishda ayrim muammolar mavjud. Tahlillardan, oliy harbiy ta'lim tizimida kasbiy malakaning hoziri zamon talablariga to'la javob beraolmasligi, o'zaro raqobatning yo'qligi, elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitish muammolariga oid tadqiqotlarni rivojlantirish, ularning natijalarini mustaqil yecha olish tajribasiga asoslangan kasbiy malaka va ko'nikmalarga yetarli darajada ega emasligi, bu faoliyatlarni shakllantirishga oid mashg'ulotlar asosan tanishtiruv xarakteriga ega ekanligi, ko'pincha mutaxassislar ishlab chiqarishni yaxshi bilmasligi hamda o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish, zamonaviylashtirishga astoydil qiziqishni namoyon qilmasligi kabilardan ma'lum bo'ldi.

Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, armiyamizni zamonaviy turdagi qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qurollantirish o'ta muhim vazifa bo'lib, aynan shuning hisobidan armiyamizning tezkorligi va harakatchanligi, zarur jangovar



qudratini ta'minlash mumkin. Avvalo, armiyamizni zamonaviy jangovar texnikalar, razvedka va kuzatuvning elektron tizimlari, nishonni yuksak darajada aniq uradigan, tezkor qurollar, samarali aloqa vositalari, shuningdek, yakka tartibda va guruhlarda qo'llaniladigan ishonchli himoya vositalari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun yetuk mutahassislarni tayyorlashda, elektrotexnika va elektronika asoslari fanini yangi texnika va texnologiyaning yutuqlari bilan tanishtirishni amalga oshirish lozim.

MUHOKAMA

Elektrotexnika va elektronika asoslarini o'qitishga oid tanalangan mavzulardan o'quv jarayonida foydalanish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratdi:

Elektrotexnika va elektronika asoslarini o'qitish uchun tanlangan mavzular elektrotexnika va elektronika asoslari o'quv fanining o'quv rejasi va dasturi talablariga mos kelishiga, kursantlarning oson o'zlashtirishiga;

shakllangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning amaliyotga qo'llay olishiga;

kursantning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga;

tanlangan mavzular mazmuni didaktik va metodik talablarga javob berishi; fan-texnikaning zamonaviy rivojlanishiga mos kelishi;

tanlangan mavzularning mantiqan ketma-ketligi, ilmiyligi, nazariya bilan amaliyotning uzviyligining saqlanganligi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulot o'tishda, albatta, ta'lim muassasasini, undagi kursantlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, shu bilan birga, ularning mashg'ulotga faol qatnashishlarini ta'minlovchi, tafakkurni o'stirishga, rivojlantirishga qaratilgan o'quv metodlari qo'llanildi.

Boshqa fanlar kabi elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitish jarayonida kursantlarga kerakli bilimlarni berish bilan birga ularning bilish qobiliyatlari ham rivojlantiriladi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat elektrotexnika va elektronika asoslari o'qituvchilari, balki butun jamiyatimiz oldidagi muhim vazifadir. Elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitish orqali ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyati, o'zlashtirilgan bilimlari chuqurlashib boradi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Buning uchun o'qituvchi elektrotexnika va

elektronika asoslari fani mashg‘ulotlarida, topshiriqlarni bajarish, tekshirish, maqsad va kutilayotgan natijalarni aniq belgilab olishi shart.

XULOSA

Hozirgi davrda ishlab chiqarishni boshqarish tizimini avtomatlashtirish, asosan, elektron asboblardan foydalanish bilan hal etilmoqda. Bu esa oliy harbiy ma’lumotga ega bitiruvchilarimizning turli harbiy sohalardagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun ixtisosligi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yetarli darajada elektronikaga oid bilim va tayyorgarlikka ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Elektronika fanining erishgan yutuqlaridan harbiy sohani rivojlanishida unumli foydalanilar ekan, bu zamonaviy janglarda yutuqlarga erishishda o‘z samarasini albatta ko‘rsatmoqda.

Shunday qilib, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli yondashgan holda elektotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida samarali tashkil qilinishi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Pazilova Sh. A. Multimedia technologies in the process of teaching electrical engineering and features of their application. Issue: Vol. 3 No. 05 (2023): Volume 03 Issue 05. Pages: 145-148.
2. Pazilova Sh. A. Formation of electrical engineering as a science and academic discipline. Educational Research in Universal Sciences, 2(5) 2023. Pages: 167-171.
3. Фаберман Л. Б., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. – Т.: 2002. - 84 б.
4. Pazilova Sh. A. Electronics and its Role in Modern Science // Open Herald Periodical of Methodical Research 2(3), pp 68-71 2024.
5. А.А. Холиқов. Raqamli sxemotexnika. - Toshkent: “Yangi nashr”. 2007.
6. Фаберман Л. Б., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. – Т.: 2002. - 84 б.

